



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari... 95	
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari 98 Umurov Sharif Rajabovich	98
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash 102 Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	102
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта 106 Панжиева Назокат Нормаматовна	106
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации 111 Тураева Дилфуза Даминовна	111

JADID MA'RIFATPARVARLARI PEDAGOGIK MEROSINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY IJTIMOIIY- PEDAGOGIK AHAMIYATI

Raxmatova Dilbar Anvar qizi

Profi University Navoiy filiali o'qituvchisi

Navoiy davlat pedagogika universiteti doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosi, ularning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ma'rifiy-ma'naviy mazmuni va Turkiston ijtimoiy hayotidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalarining pedagogik faoliyati hamda yosh avlodni tarbiyalashga oid g'oyalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Maqolada jadidlarning yangi usul maktablari, darsliklar yaratish, matbuot va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi ham ko'rib chiqilgan. Ularning pedagogik qarashlaridan zamonaviy ta'lim amaliyotida foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, pedagogik meros, ta'lim-tarbiya, yangi usul maktablari, milliy uyg'onish, pedagogik qarashlar, ma'naviy tarbiya, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy.

Abstract: This article examines the pedagogical heritage of Jadid enlighteners, their educational ideas, and the significance of their views for the modern educational system. The study highlights the emergence of the Jadid movement, its educational and cultural essence, and its role in the social life of Turkestan. Special attention is paid to the pedagogical activities and ideas of Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and Abdurauf Fitrat. The contribution of the Jadids to the establishment of new-method schools, the development of textbooks, the national press, and cultural institutions is also analyzed. The article substantiates the theoretical and practical importance of applying Jadid pedagogical ideas in contemporary educational practice.

Key words: Jadidism, enlightenment, pedagogical heritage, education and upbringing, new-method schools, national awakening, pedagogical views, moral education, Abdulla Avloni, Mahmudhoja Behbudi.

Аннотация: В данной статье анализируется педагогическое наследие джадидских просветителей, их взгляды на образование и воспитание, а также значение их идей для современной системы образования. Освещаются предпосылки возникновения джадидского движения, его просветительская сущность и роль в общественной жизни Туркестана. Особое внимание уделено педагогическим взглядам и деятельности Махмудходжи Бехбудии, Абдуллы Авлони, Мунавваркори Абдурашидханова и Абдурауфа Фитрата. Рассматривается вклад джадидов в создание новометодных школ, учебников, развитие национальной прессы и культуры. Обосновывается актуальность использования педагогических идей джадидов в совершенствовании современной образовательной практики.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, педагогическое наследие, образование и воспитание, новометодные школы, национальное возрождение, педагогические взгляды, духовное воспитание, Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбудии.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining barqaror taraqqiyoti va kelajak istiqboli yosh avlodning har tomonlama barkamol, bilimli hamda yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllanishiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, milliy g'urur va ma'naviy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan milliy uyg'onish davri namoyandalari merosiga berilayotgan yuksak baho jadidchilik harakati va uning vakillari faoliyatini chuqur o'rganish zarurligini yanada kuchaytirmoqda. Prezidentimiz o'z nutq va ma'ruzalarida Abdulhamid Cho'lpon, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Ahmad Donish, Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy kabi ma'rifat fidoyilarining xalq ma'naviyati va milliy taraqqiyotdagi o'rnini alohida ta'kidlab, ularning boy ilmiy-ma'rifiy merosi bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida



muhim ahamiyat kasb etishini qayd etgan. Jamiyat ma'naviy salohiyati – ijodiy tafakkurga ega kishilar soni madaniy-ma'rifiy tizimning takomillashganiga ham bog'liq. Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy muassasalar tarkibiga madaniyat uylari, kutubxonalar, teatrlar, muzeylar va shu kabilar kiradi. Ular faoliyatining mazmuni "keng ommani madaniy va ma'rifiy tarbiyalash, ularning umumiy madaniy saviyasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazish" bilan bog'liq.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati milliy taraqqiyot, ma'rifat va ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy harakat sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Jadid ma'rifatparvarlari xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarishning eng samarali vositasi sifatida ta'lim-tarbiyani e'tirof etdilar. Ular zamonaviy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlaydigan, milliy o'zligini anglagan yoshlarni tarbiyalashni jamiyat taraqqiyotining muhim omili deb bildilar. Jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy kabi ma'rifatparvarlarning xizmatlari beqiyosdir. Ularning pedagogik qarashlari va ma'rifiy faoliyati o'sha davr matbuoti, xususan, "Sadoyi Turkiston", "Oyna", "Turon", "Samarqand", "Sho'ro" kabi gazeta va jurnallarda o'z aksini topgan. Ushbu manbalar jadidlarning ta'lim-tarbiya sohasidagi g'oyalari va amaliy faoliyatini o'rganishda muhim tarixiy manba vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jadidchilik harakati tarixi va uning ma'naviy merosi ko'plab tarixchi, adabiyotshunos hamda pedagog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, M. Vahobov, X. Vohidov, I. Mo'minov, A. Qayumov, Qori Niyoziy, B. Qosimov, N. Karimov, U. Dolimov kabi olimlar jadidlar faoliyatining tarixiy va adabiy jihatlarini o'rgangan bo'lsalar, E. Ablayev, A. Boboxonov, M. Maxsumov, Z. Mirtursunov, A. Muhammadjonov va S. Rajabovlarning ilmiy izlanishlari jadidlarning pedagogik qarashlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mazkur tadqiqotlar asosida qator monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda dissertatsiyalar yaratilgan.

Jadid ma'rifatparvarlarining faoliyati faqat yangi usul maktablarini tashkil etish bilan cheklanib qolmagan. Ular Turkiston o'lkasining ijtimoiy, madaniy va siyosiy taraqqiyotiga xizmat qilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirganlar. Xususan, yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan maktablarni tashkil etish, zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish, bosmaxonalar ochish, gazeta va jurnallar nashr etish orqali xalqning siyosiy va huquqiy ongini yuksaltirishga intilganlar.

Shuningdek, jadidlar xayriya jamiyatlarini tashkil etib, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarining ta'lim olishi uchun moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatganlar. Ular iqtidorli yoshlarni Germaniya, Turkiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborib, milliy kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Bundan tashqari, kutubxonalar, kitob do'konlari, teatr truppalari tashkil etish orqali xalqning madaniy saviyasini oshirishga xizmat qilganlar. Aynan jadidlar faoliyati natijasida Turkistonda milliy teatr san'ati va zamonaviy matbuot rivojlanishining mustahkam poydevori yaratildi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosi o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aksincha, ularning ilm-fan, ma'rifat, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, axloqiy komillik va mustaqil fikrlashga oid qarashlari zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim nazariy hamda amaliy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Jadidlar ilgari surgan ta'limiy g'oyalar bugungi kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan hamohangdir.

Demak, jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini chuqur o'rganish, ularning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini zamonaviy pedagogika yutuqlari bilan uyg'unlashtirish hamda ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bugungi kunning muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu meros yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda mustaqil tafakkur va yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari va ularning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, qiyosiy taqqoslash, tahlil va sintez, umumlashtirish hamda tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosiga oid ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar, monografiyalar, maqolalar hamda arxiv materiallari tashkil etdi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa jadid mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari o'rganildi.

Qiyosiy taqqoslash metodi yordamida jadidlarning pedagogik g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan solishtirildi. Shuningdek, ularning yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlarining bugungi ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida jadid ma'rifatparvarlarining asarlari, o'sha davr matbuot materiallari hamda mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar mazmunan tahlil qilinib, olingan ma'lumotlar umumlashtirildi. Natijada jadid pedagogik merosining yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, mustaqil fikrlash va milliy qadriyatlariga hurmat tuyg'ularini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan taraqqiyparvarlik harakatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan jadidchilik xalq ma'rifatini yuksaltirish, milliy ongini shakllantirish hamda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan g'oyalari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlar nafaqat o'z davri uchun, balki zamonaviy ta'lim taraqqiyoti uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jadidlarning pedagogik faoliyati, avvalo, eski maktab va madrasalar faoliyatini isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish, ta'lim mazmunini fan yutuqlari bilan boyitish hamda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan edi. Ular ta'limda dunyoviy va diniy bilimlarning uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati jadidlar pedagogik merosini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ularning ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan hamohangdir.

Shu bois jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini ilmiy tadqiq etish, uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish hamda yosh avlod tarbiyasida undan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Jadidlarning ma'rifiy va pedagogik qarashlari milliy ta'lim tizimini takomillashtirish, ma'naviy barkamol va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Jadid ma'rifatparvarlari ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida inson omiliga, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar.

Ularning fikricha, har qanday jamiyatning kelajagi barkamol, bilimli va ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli bolalar tarbiyasi jadid pedagogikasining markaziy masalalaridan biri sifatida qaralgan.

Jadid mutafakkirlari bolani nafaqat tarbiya obyekti, balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi faol ijtimoiy subyekt sifatida baholaganlar. Ular yosh avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga katta ahamiyat berganlar. Jadidlarning pedagogik qarashlarida bolaga nisbatan insonparvarlik, hurmat va g'amxo'rlik tamoyillari ustuvor o'rin egallaydi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogikaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan hamohangdir.

Jadid pedagogik merosida tarbiya masalasiga eng chuqur yondashgan mutafakkirlardan biri Abdulla Avloniy hisoblanadi. U tarbiyani millat hayoti va taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etib, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", degan mashhur fikrni ilgari surgan. Ushbu qarash tarbiyaning nafaqat shaxs, balki butun jamiyat va millat taqdiridagi o'rnini yaqqol ifodalaydi.

Avloniyning fikricha, bolaga berilgan ta'lim va tarbiya uning kelajakdagi ijtimoiy mavqei, axloqiy qiyofasi hamda ma'naviy dunyosini belgilaydi. Shu bois u yoshlarni ilmiy, vatanparvar, mehnatsevar va axloqan pok insonlar qilib tarbiyalashni pedagogikaning eng muhim vazifasi deb hisoblagan. Mutafakkir tarbiyani faqat oila yoki maktab doirasidagi jarayon sifatida emas, balki jamiyatning barcha institutlari ishtirok etadigan murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida talqin qilgan.

Jadidlarning bola tarbiyasiga oid qarashlari bugungi kunda ham o'z ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ularning yosh avlodni mustaqil fikrlashga, bilim olishga intilish ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarga hurmat va Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish haqidagi g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimining muhim metodologik asoslaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli jadid mutafakkirlarining pedagogik merosini o'rganish va undan ta'lim-tarbiya amaliyotida samarali foydalanish bo'lajak pedagoglar hamda talabalar uchun muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, jadid ma'rifatparvarlari Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilish yasagan, milliy uyg'unlash va ma'rifat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan tarixiy shaxslar hisoblanadi. Ularning pedagogik qarashlari xalqni ilm-fan, ma'rifat va zamonaviy ta'lim orqali taraqqiyot sari yetaklash g'oyasiga asoslangan bo'lib, bugungi kunda ham o'zining ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadid mutafakkirlari yosh avlod tarbiyasini jamiyat rivojlanishining eng muhim omili sifatida baholaganlar. Ular ta'lim va tarbiyani shaxs kamoloti, milliy o'zlikni anglash hamda ma'naviy barkamollikning asosiy vositasi deb hisoblaganlar. Ayniqsa, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlarning pedagogik merosida insonparvarlik, vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, mustaqil fikrlash va ilmga intilish g'oyalari ustuvor o'rin egallaydi.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari, yaratilgan darsliklar, matbuot nashrlari, kutubxonalar va madaniy-ma'rifiy muassasalar xalq ta'limi tizimining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ularning faoliyati natijasida Turkistonda zamonaviy ta'limning nazariy va amaliy asoslari shakllandi hamda milliy pedagogik tafakkurning rivojlanishiga mustahkam zamin yaratildi.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlarida jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois jadidlar pedagogik merosini chuqur o'rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etish va ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etish zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Demak, jadid ma'rifatparvarlarining boy pedagogik merosi nafaqat tarixiy-madaniy qadriyat sifatida, balki zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Jadid pedagogikasi" O'quv-uslubiy majmua Shahrisabz -2022
2. "Pedagogika : muammolar,bahslar,yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi . T -2003
3. "Pedagogika" ta'lim jurnali
4. Abdulla Avloniy " Turkiy guliston yohud axloq " - T : O'qituvchi 1992 ,160 b 373
5. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.
6. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T.: "Istiqloq", 2003.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.